

Oripov Jamshid Yaxshiboyevich

***TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA INTERFAOL  
USULLARDAN FOYDALANISH***

***“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI  
TOSHKENT - 2022***

**UO'K 821.512.133(072)**

**Yu 31**

**J.Oripov.** Tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion texnologiya va interfaol usullardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: «Qamar media», 2022.-54 b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada ta'lim tizimini texnologiyalashtirishning o'ziga xos jihatlari, innovatsion texnologiyalar asosida "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati, fanni o'qitish samaradorligini oshirishda didaktik materiallar haqida fikr yuritilgan, shuningdek, "Tarbiya" fanni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarishga doir tegishli topshiriq va tavsiyalar ilgari surilgan.

Ushbu qo'llanma "Tarbiya" fani mutaxassislik modullarining uzviy, tarkibiy qismi sifatida nafaqat "Tarbiya" fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursi tinglovchilari, balki umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

**Taqrizchilar:**

**X.A. Jo'raqulov**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutahassislaik fanlari" kafedrasi mudiri, dotsenti.*

**G. Tagayev**

*-Samarqand viloyat XTXQTMOHM ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri.*

*Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining 2021-yil 29-iyundagi Ilmiy-metodik kengashining navbatdagi 3-sonli qaror bilan tasdiqlangan.*

**ISBN 978-9943-8551-8-2**

© J.Oripov.  
© "Qamar media" nashriyoti

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekistonda ta‘lim sohasini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib amaliyotga joriy etilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son Qarorida xalq ta‘limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida xalq ta‘limi tizimiga zamonaviy innovatsion texnologiya va xorijiy tajribalarni joriy etish, sohani 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-1059-son hamda 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida “Tarbiya” fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursi tinglovchilarining kasbiy kompetentligini oshirish masalasini nazarda tutadi.

O‘tgan yillar davomida respublikamizda ta‘lim tizimini isloh qilishning mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik ba‘zasi yaratilganligi, zamonaviy ta‘limga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalar, o‘qitishning interfaol usullarini joriy etish imkoniyatini yaratdi. O‘quvchilarning fan asoslarini egallashga bo‘lgan qiziqishlarini ortirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish va ijodiy tafakkurini shakllantirish masalasini ijobiy hal etish, o‘qitish

jarayoniga zamon talablari asosidagi yangicha yondashuvni vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarorida ilgari surilgan "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oya asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda "Tarbiya" fanining ahamiyatini nazarda tutib, ushbu uslubiy qo'llanmada, ta'lim tizimini texnologiyalashtirishning muhim jihatlari, "Innovatsion texnologiyalar" asosida "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, "Tarbiya" fanini o'qitishda didaktik materiallar, interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati borasidagi nazariy fikrlar va amaliy topshiriqlar asosida yoritib berilgan.

## **I BOB. INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR-TA'LIM TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI**

### **Ta'lim tizimini texnologiyalashtirishning o'ziga xos jihatlari.**

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar xalqimizga munosib turmush tarzini yaratib berish, farovvon va to'kis hayotini ta'minlash hamda yurtimizning kuch-quratini oshirish bilan xalqaro maydonda rivojlangan davlatlardanda yuksak taraqqiy etgan mamlakatga aylantirishdek strategik maqsad negizida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarining takomillashib borayotganligida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'ri-sida"gi PF-5712-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarorlarining qabul qilish jarayonlari ham bevosita ta'lim tizimining huquiy asoslarini takomillashuvi, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilayotganligidan dalolat beradi. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha yo'nalishlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Aniqroq qilib aytganda, ta'lim sohasini tizimli tartibda texnologiyalashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi ham sohadagi islohotlarning samarasidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida

takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",- deb<sup>1</sup> alohida ta'kidlaganligi, ta'lim-tarbiyaning xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning intellektual salohiyatini oshirishda va mamlaktimiz taraqqiyoti hamda uning porloq kelajagida muhim omil ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlaka-timizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida: Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017—2021-yillarda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni belgilab berdi.

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bevosita ta'lim sohasini rivojlantirish masalalarini qamrab olgan. Jumladan:

-uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

-ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

-umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish kabi, bevosita xalq ta'limi tizimi uchun ham muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan bo'lib, bunday vazifalarni amalga oshirish samaradorligi tizimni qay darajada texnologiyalashtirilganligi bilan bog'liq jarayondir. Ana shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va sohaga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti natijasida ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsiyani yuzaga keltirdi. Ayniqsa, fan-texnikaning

---

<sup>1</sup>Ш.М.Мирзиёев. "Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови" мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2016 йил 8 декабр, 243-сон.

integratsiyalashuvi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, shu bilan bir qatorda, fan, ta'lim tizimida ham faol integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi natijasida yani innovatsion texnologiya va pedagogik texnologiyalarning bir-biri bilan integratsiyalashuvi (yaqinlashuvi, birikuvi) fanda yana bir innovatsion pedagogik texnologiyalar degan yangi bir tushunchani yuzaga keltirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, jamiyatda har bir yosh avlodni barkamol shax sifatida tarbiyalash muammosi ijtimoiy munosabatlar tizimida ta'lim-tarbiya bilan bevosita uzviy aloqador jarayondir. Shuning uchun ham ta'lim tizimining moddiy-texnik ba'zasini boyitish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan to'liq ta'minlashni davrning o'zi taqoza etmoqda.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish tizimga texnika va texnologiyalarning qo'llash bilan bog'liqdir. Aniqroq aytganda, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish tizimga texnika va texnologiyalarning joriy etishdir. Tizimga texnika va texnologiyalarni joriy etish, o'qitishning sifat-samaradorligini ta'minlash, qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot yetkazish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi axborot almashishni tezlashtirish imkoniyatini beradigan texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq jarayondir.

Fan va texnikaning rivojlanishi bevosita bir-birini taqoza etadi. Fanning rivojlanishi texnika taraqqiyotiga xizmat qilsa, o'z navbatida fanlarni o'qitish jarayoniga texnologiyalarni qo'llash, o'qitish imkoniyatlarining kengayishi va sifat-samaradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilayotganligi hech kimga sir emas. Texnologiyada mavjud keng imkoniyatlaridan kelib chiqib, texnologiyalarning o'qitish jarayoni va ta'lim tizimidagi ahamiyatiga qarab, tizimni texnologiyalashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish o'qitishning sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek, ta'limni nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati, o'quv jarayonining samaradorligini xolisona baholash va nazorat qilish imkoniyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini texnologiyalashtirish uning ma'zmunini yangidan boyitishga, samaradorlik darajasi va o'quv-tarbiya jarayonining didaktik ta'minotini hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosidagi yangi uslubiy majmualarni doimiy takomillashtirib borishni muntazam oshirishning muhim omilidir. Bu

esa ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlanayotgan maqsadlarga to'liq mos keladi.

Dastlab, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish XX asrning 80-yillarining o'rtalarida rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimida qo'llanila boshlagan. Ammo, ta'lim tizimini texnologiyalashtirishga qaratilgan bu jarayonning tarixi XVII asrga borib taqaladi. Aniqroq qilib aytganda ta'limni texnologiyalashtirish yani ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan g'oyani chex olimi Yan Amos Komenskiy tomonidan ilgari surlgan.

**Ta'limni texnologiyalashtirish bu o'quv va o'qitish jarayoniga texnologiyalarni qo'llash yondashuvi asosida ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim yo'nalishlari hamda eng maqbul yo'llari mutanosibligida qo'llanuvchi samarali texnik vositalar hamohangligidagi aniq g'oya, konsepsiyalar bilan bog'liq pedagogik jarayondir.** Shundan kelib chiqib, o'quv jarayonlarini texnologiyalashtirish:

*birinchidan*, insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlariga nisbatan fan-texnika va axborot texnologiyalarining tezkorlikda rivojlanishi, axborot almashish jarayonlarini jadallashuvi;

*ikkinchidan*, ilmiy texnikaviy taraqqiyot yutuqlari ishlab chiqarishning (qishloq xo'jaligi, sanoat va tibbiyot) tarmoqlariga, madaniyat va ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga tadbqiq etilish natijada sohaning taraqqiy etishiga ta'sir etganligi, o'quv-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirishning muhim omili bo'lganligi;

*uchinchidan*, globallashuv jarayonida o'quvchi yoshlarni turli tahdidlardan saqlash va ularni fikirlash doirasini kengaytirish hamda hayotga mukammal tayyorlash jarayoniga samarali ta'sirining mavjudligi;

*to'rtinchidan*, bugungi axborot oqimining tig'izlashgan davrida yoshlarni axborotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, targ'ibot ishlarini doimiy takomillashtirishning dolzarbligi;

*beshinchidan*, yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini anglab yetgan holda tizimga yangicha yondashuvning zarurati kabi o'ziga xos jihatlardan iboratdir.

Darvoqe, bugungi kundagi pedagogikaga oid ilmiy adabiyotlarda ta'lim tizimini texnologiyalashtirish iborasi "zamonaviy pedagogik texnologiyalar", "pedagogik texnologiya" yoki "innovatsion pedagogik



texnologiyalar” kabi nomlar bilan e’irof etilayotganligi bu tushunchaning keng ma’noli ekanligidan dalolat beradi. Agar pedagogika sohasining mutaxassis-olimlari tomonidan o’qitish jarayonlarini texnologiyalashtirish borasidagi ta’rifu-tavsiflarning rang-barangligi bu sohani shunchaki texnik vositalar bilan ta’minlash degan “tor” ma’nodagi jarayon emasligidan dalolat beradi.

### **“Innovatsion texnologiyalar” asosida “Tarbiya” fanini o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari.**

Har qanday jamiyatning kelajagi bugungi ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi, yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim-saviyasi va fikrlar doirasining kengligi, bir so’z bilan aytganda intellektual salohiyatining yuksakligi bilan bog’liq uzluksiz jarayondir. Demak, jamiyat hayotida va uning taraqqiyotida ta’lim muhim ahamiyatga ega ekan, sohaga yangi innovatsiya va pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda uning huquqiy asoslarini doimiy takomillashtirib borishni taqoza etaveradi.

Innovatsion jarayonlarni, jumladan, axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT)ni pedagog-xodimlar kasbiy-mutaxassislik faoliyatiga tatbiq etish bo’yicha to’plangan nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni keng joriy etish malaka oshirish tizimi orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kundagi ta’lim tizimining vazifasi-insonni to’yingan axborot-ta’lim muhiti sharoitida yo’nalish ola bilishga o’rgatishdan iborat ekan, buning uchun o’qituvchilarni kerakli axborot olishning yangi shakllariga tayyorlash, o’quv-interfaol uslubiy qo’llanmalar va elektron kutubxonalar fondlaridan foydalanish, global va lokal kompyuter tarmoqlarining zamonaviy resurslaridan foydalanishga qodir bo’lgan uzluksiz mustaqil ta’lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyati paydo bo’ladi<sup>1</sup>. Ana shuning uchun ham bugungi kunda yurtimizda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va uni yangi boshqichga ko’tarish, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-5538-son Farmoni xalq

---

<sup>1</sup>АвдееваС.М. Дистанционное повышение квалификации работников образования по использованию интернет-технологий в педагогическом процессе. — Т.: «Ахборотнома», 2002. — №9. — С.67–69.

ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmonida: "Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi",-deb ta'kidlangan<sup>1</sup>.

Ta'lim tizimining samaradorligini oshirishning muhim jihatlaridan yana biri, sohaga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limning innovatsion shakllarini joriy etishdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan ushbu farmonda ta'lim tizimiga, ayniqsa xalq ta'limi tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llash zarur ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasida hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil fikrlash va fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish, bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda o'zining ahamiyatli xususiyatlariga ega ekanligi bilan ham pedagog-olimlarni birdek qiziqtirib kelayotgan dolzarb mavzuga aylanib ulgurdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalar va rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarini mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish faoliyati yurtimizda Innovatsion texnologiyalar markazi, Respublika ta'lim markazi, "Iste'dod" jamg'armasi singari bir qator tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni. 2018-yil 5-sentabr.

faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun, ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berish zarur.<sup>1</sup>Barkamol avlodni tarbiyalash, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdek ulug' maqsadlarimizga erishishning muhim omili bo'lgan ta'lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq jarayondir.

Globalashuv jarayoni kechayotgan, axborot oqimi tig'izlashgan bugungi davrda shaxsning shakllanishi, uning salohiyati va qobiliyatini oshirish boshqa fanlar qatori bevosita "Tarbiya" fani bilan bog'liq jarayondir. Modomiki, "Tarbiya"ni fan sifatida ta'lim tizimiga joriy etdikmi, demak mazkur fanni o'qitishda qanday tamoyillar va usullarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, degan savolga javob topish hamda uning metodologiyasini yaratish bugungi kunning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Informatsion jarayonlarning intensivlashuvi bilan innovatsion texnologiyalarni turli sohalarga joriy etishning tezlashuvi, shaxsning ijtimoiy takomiliga ta'sir etadigan jihatlarini nazariy va amaliy tadqiq etish pedagogika va ijtimoiy-falsafiy fanlar doirasida ahamiyati oshib bormoqda.

Ta'lim tizimi va ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalar borasidagi bahs-munozara yoki qarashlarning turli-tumanligi bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Innovatsion texnologiyalar borasidagi fikrlarning rang-barangligi bu tushunchaning ma'zmunan keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida: "Innovatsiya [ingl. Innovation-kiritilgan yangilik, ixtiro] 1. Texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar. 2. Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarga qo'llanishi. 3. Muayyan tilda, asosan uning morfologiya sohasida eng so'ngi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari)",-deb ta'rif berilgan.<sup>2</sup>

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa: "Innovatsiya (ing. Innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya

<sup>1</sup>Р.Ишмухаммедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма). — Т.: «Nihol nashryoti», 2013.4–бет.

<sup>2</sup>Т.Мирзаев (рахбар) бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси. Тил ва адабиёт институти.-Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашрети, 5 жилд, 2 китоб, 2006. 212–бет.

avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli va faoliyat doiralari qo'llanilishi", -degan izoh berilgan.<sup>1</sup>

Innovatsiya (ingilizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.<sup>2</sup>

Innovatsiya tushunchaning keng ma'noli ekanligidan darak beruvchi ta'riflardan biri: "innovatsiya (lotincha *innovatis*) – bu yangilik, yangi tartib qoida, o'zgarish degan ma'noni anglatadi.

YUNESKOning hujjatlaridan birida "... Yangilik albatta yangi bo'lishi shart emas, biroq u albatta nimasi bilandir yaxshiroq va o'z-o'zidan namoyon etilishi mumkin bo'ladi"-deb ko'rsatilgan<sup>3</sup>.

Bundan ko'rinib turibdiki innovatsiya atamasi borasida turli ta'riflar mavjud bo'lsada, ammo, "kiritilgan yangilik", "ixtiro", "texnika va texnologiya", - tushunchalariga keng urg'u berilgan. Demak, innovatsiya deganda, inson tafakkuri mahsuli bilan yaratilgan yoki ixtiro qilingan, aynan, jamiyat va inson tamaddunida, jumladan ta'lim sohasining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi texnika va texnologiyalarni tushunimiz lozim. Aniqroq aytganda, o'quv-tarbiya jarayonining ijobiy tomonga o'zgartirish, sifat-samaradorligini ta'minlash maqsadiga qaratilgan didaktik materiallar, uslubiy qo'llanmalar va tashkiliy-texnik ta'minotdir.

Biz yuqorida innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga va ijtimoiy muomiladagi tasnifi haqida mulohaza yuritdik. Bunday ta'rifdagi yangilik, texnika va texnologiyalar tushunchalariga kengroq o'rin berilganligidan shuni anglash mumkinki, innovatsiya yangi texnologiyadir. Bizningcha, innovatsiya va texnologiya tushunchalarini innovatsion texnologiya shaklida mushtarak tushuncha sifatida talqin etish ham yangilish bo'lmaydi.

Innovatsion texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga ijobiy ta'siri bilan ahamiyatlidir. Innovatsion texnologiyalarning ana shu ahamiyatligi, nafaqat ishlab chiqarish, meditsina, qishloq xo'jaligi balki, ta'lim tizimiga joriy etishda muhim omil bo'lib, tizimni

<sup>1</sup>М.Аминов, Т. Даминов ва бошқалар. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашрети, 4 китоб, 2002. 169–бет.

<sup>2</sup>Р.Ишмухаммедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма). — Т.: «Nihol nashryoti», 2013.10–бет.

<sup>3</sup>Ш.М.Машарипова. Та'лим технологиялари. Илмий-усlubiy jurnal. № 5, 2015. 79–бет.

harakatga keltirishga ijobiy ta'sir etuvchi kuch sifatida qaralmoqda. Ana shu kuch ta'limning, jumladan, "Tarbiya" fani o'qitishning sifat-samaradorligini oshirish, natijadorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion texnologiyalar-pedagogika taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni.<sup>1</sup> Demak, innovatsion texnologiyalar nafaqat, ta'limning natijadorligiga ta'sir etadi, balki, o'qituvchi-pedagogning ijodiy faolligini oshirish va uning faoliyatini jadallashtirishda ham bir qator imkoniyatlarni yaratib beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etishga kirishayotgan pedagogning o'zi innovatsion texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasi, mahorati va malakasiga ega bo'lish ham talab etiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, bu jarayon innovatsion texnologiyalarni mukammal o'zlashtirib olgan bilimdon, keriativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil eta oladigan, yuksak mahoratga ega, ijodkor, izlanuvchan, malakali pedagoglar tomonidan amalga oshiriladigan jarayondir. Zero, bunday o'qituvchi pedagoglar o'qitish jarayoni va darslarga innovatsion texnologiyalarni qo'llashning mavjud o'ziga xos xususiyatlaridan ustomonlik bilan foydalana oladi.

Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan "Tarbiya" fanini o'qitishning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bunday xususiyatlarning mavjudligi tabiiy albatda. Zero, ijtimoiy munosabatlar o'zining u yoki bu jihatlarining o'ziga xosligi bilan faqrlanadi. Demak, "Tarbiya" fani o'qituvchisi darsda innovatsion texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishda o'qitishning quyidagi:

*birinchidan*, o'qituvchi darsning (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi) maqsadlarga erishishda maqsadlarni to'g'ri rejalashtirgan bo'lishi;

*ikkinchidan*, o'qituvchi zamonaviy ilmiy, texnologik taraqqiyot, bir so'z bilan aytganda innovatsion texnologiyalar va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotning mohiyatini chuqur anglab yetishi;

---

<sup>1</sup>Педагогика энциклопедия. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрети, 2015. II-жилд. 90–бет.

*uchinchidan*, o'qituvchi innovatsion texnologiyalar va texnik vositalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga to'g'ri joriy etish malakasiga ega bo'lishi;

*to'rtinchidan*, fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda ularni to'g'ri qo'llay olish borasida ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishi;

*beshinchidan*, o'qituvchi o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydigan, o'z fikrlarini erkin bildirishda muhim bo'lgan nutqni rivojlantirishga xizmat qiladigan usullarni tanlash kabi o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratishi zarur.

"Tarbiya" fani o'qituvchisiga eng avvalo, mavzuga mos keladigan interfaol usullarni tanlash tavsiya etiladi. Darhaqiqat, bugungi kunda interfaol usullarning turlari ko'p. Ammo, bunday usullardan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin emas. Chunki, pedagog tomonidan qo'llanilayotgan interfaol usullarning hammasi ham o'qitilayotgan mavzuga mos kelavermasligi mumkin. Bu pedagogik jarayonda e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihat hisoblanib, jarayonning bunday nozik jihatlarini payqab olishda o'qituvchidagi zehn va ziyraklik xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuni alohida aytib o'tish joizki, har bir o'qituvchining mahorati, keriativligi va kopitentligi uning ichki tuyg'usi, hissiyotlari, intellektual salohiyati bilan hamohang tarzda shakllanib boradi. Pedagogika fanlari nomzodi R.Choriyev o'qituvchi mohoratini takomillashtirib borishining to'rtta yo'lini ko'rsatib berganlar. Bu yo'llar quyidagi:

Ilg'or hamkasblari ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tadbiiq etish va takomillashtirib borish;

Ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholash, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish;

Xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish orqali;

Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usulik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib borish orqali kabilardan iborat.

## **II BOB. “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH: NAZARIY VA AMALIY TOPSHIRIQLAR “Tarbiya” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati.**

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar qanchalik jadallashib borayotgan bo'lsa, ta'lim sohasiga innovatsiya va xorijiy tajribalarni joriy etish ham shu qadar tezlashdiki – bu bevosita mamlakatimizda ta'lim tizimiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazayotganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham sohaga innovatsion texnologiya va interfaol usullarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi VM-422-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, shuningdek o'quvchilarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish maqsadida “Tarbiya” fani joriy etildi. Modomiki, “Tarbiya” fan sifatida amaliyotga joriy etilgan ekan, mazkur fan doirasida o'qitilayotgan mavzularning samaradorligini oshirish, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali, to'g'ri foydalanish – o'quvchilarning ma'naviy-intellektual salohiyati hamda tarbiyalanganlik darajasini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Darhaqiqat, “Tarbiya” fanini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish va zamonaviy talablar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'quvchilarda yangicha dunyoqarash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy-ma'naviy va axloqiy tamoyillar, Vatanga sodiqlik, ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalasi fanning asosiy vazifasini tashkil etadi. Bunday vazifalarini amalga oshirish uchun “Tarbiya” fanini o'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va interfaol usullar yordamida tashkil etish o'zining samaradorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi-pedagoglarning interfaol usullardan foydalanish parametrlarini yaxshi bilishi va undan tizimli foydalana olishi

o'qituvchi-pedagoglarning mahorati bilan uzviy bog'liq jarayon ekanligi to'g'risida yuqorida fikr bildirgan edik. "Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi, uning natijadorligi o'qituvchi-pedagoglarning mahorati, tajribasi, ijodkorligi, ko'nikma va malakalari bilan uzviy aloqadorlikni talab etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni joriy etish keng tus olmoqda. Ammo innovatsiyalarni sohalarga joriy etish, uning mazmun-mohiyatini ochi berish va jamiyatda ijtimoiy munosabatlar sub'ektlariga yetkazib berish jarayonini amalga oshirishda interfaol usullardan foydalanish o'zining natijadorligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyatli bo'lgan muhim jihatlari mavjud. Ana shunday ahamiyatli jihatlardan biri, an'anaviy ta'limdagi kabi o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatishdan farqli ravishda interfaol usullar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirish imkoniyatiga ega ekanligidir. "Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanib o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirish va ularda mantiqiy fikrlash qobiliyati, dunyoqarashini kengaytirish, bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, fikr va mushohadalarini asoslash qobiliyatini shakllantirishdir.

Pedagogik adabiyotlar yoki ijtimoiy pedagogik muloqotlarda "interfaol metodlar", "interfaol usullar", degan tushunchalarga tez-tez uchrab turadi. Aslini olganda bu ikki tushuncha bir ma'noni anglatadi, ya'ni metod rus tilidan tarjima qilinganda usul ma'nosini anglatadi. Dars jarayonlarida interfaol usullarni qo'llash, o'quvchilarning o'zaro harakat qilish, hamkorlikda ishlash va bir-biriga faol ta'sir ko'rsatish muhitini yaratib beradi. Bunday muhitni yaratish interfaol usullarning ahamiyatli jihatlardan biridir.

Pedagogika ensiklopediyada: "Interfaol metodlar – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro yaqin hamkorligi va muloqotiga asoslangan dars jarayoni hamda shunday darslarni tashkil etish usuli. "Interfaol" so'zi "interaktiv" so'zining o'zbek tilidagi bayoni. "Interaktiv" so'zi inglizchadagi **interact** so'zidan olingan bo'lib, **inter** - "o'zaro", **act** "harakat, ta'sir, faollik" kabi ma'nolarini bildiradi.

Interfaol metodlar nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslanadi, balki ta'lim oluvchilarning



ham bir-biri bilan o'zaro yaqin muloqotini ta'minlaydi. Unda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishiga erishiladi. Mazkur usul yordamida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi va bu orqaliularni erkin fikrlashga keng yo'l ochiladi. Bu o'quvchi hamda ta'laba-yoshlarning mustaqil ravishda optimal qarorlar qabul qila olishlari, ijodiy fikr yuritishlariga imkoniyat yaratadi",-deb izoh berilgan.<sup>1</sup>

"Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyatligi shundaki, interfaol usullardan foydalanish nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyatga, o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro yaqin muloqotini ta'minlash hamda o'qituvchi va o'quvchilarni bir-birini to'liq tushunish orqali muloqotga kirishish uchun zamin yaratadi.

Interfaol usullardan foydalanish darsning samaradorligini oshirish, jarayonga samarali ta'sir etish, qiziqarli, jonli intensiv va ilmiy asosda tashkil etish orqali yuqori natijadorlikni ta'minlaydi. Darslarning samaradorligi o'rganilgan bilim va yangi to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish hamda interfaollik bilan uzviy bog'liqdir. Interfaollik bu o'qituvchi-o'quvchini o'zaro faollikdagi harakati va ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lgan muloqot, pedagogik-psixologik munosabatlaridan iborat jarayondir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etamiz:

*birinchidan*, interfaol usullardan foydalanishda o'quvchilarni mazkur usullar ulardan foydalanish tartiblari bilan tanishtirish;

*ikkinchidan*,sinf yoki auditoriyani interfaol usullar bilan ishlash uchun qulay xolatga keltirish;

*uchunchidan*, o'quvchilarning intellektual salohiyati, ijodiy imkoiyatlarini hamda yosh hususiyatlarini inobatga olish;

*to'rtinchidan*,interfaol usullardan foydalanish asosida tashkil etilayotgan dars jarayonida ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etishga yo'l qo'ymaslik;

*beshinchidan*, eng muhim tavsiyalardan biri, o'qituvchi-pedagog tomonidan har bir darsda foydalanilayotgan interfaol usullar bilan ishlash mahorati va interfaol usullarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan bir qatorda o'qitilayotgan mavzuga ushbu interfaol usul mos kelish, kelmasligini ajrata olish malakasiga ega bo'lish lozim.

---

<sup>1</sup>Педагогика энциклопедия. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрети, 2015. II-жилд. 110–бет.

## **“Tarbiya” fanini o‘qitishning samaradorligini oshirishda didaktik materiallar va interfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslari.**

Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o‘z navbatida ta‘lim tizimiga ham ijobiy ta‘sir etmoqda. Jumladan, so‘ngi vaqtlarda bot-bot takrorlanayotgan, ta‘lim tizimiga innovatsion texnologiya va interfaol usullarning joriy etilayotganligini alohida qayd etish lozim. Interaktiv darslarni tashkil etish va interfaol metodlardan foydalanish asosida darslarni tashkil etishda o‘qituvchi-pedagoglar muayyan talablarga e‘tibor berishlari lozim. Mazkur talablardan biri, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishga harakat qilishlari lozim.

Interfaol usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash, hamkorlikda tashkil etishni taqozo etadi. Bunda o‘quv jarayoni o‘quvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta‘lim samaradorligini ta‘minlashning muhim shartlaridan biri interfaol usullardan samarali foydalanishdir.

Interfaol usullarda tashkil etilayotgan noan‘anaviy (interaktiv) darslarda o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Pedagogika fanida bunday o‘qitish usuli hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi ham deb nomlanadi. Hamkorlik texnologiyasi, o‘qituvchiga dars jarayonini to‘liq nazorat qilish imkonini beradigan, pedagog asosiy boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladigan avtoritar texnologiyadan tubdan farq qiluvchi texnologiyadir. Avtoritar texnologiyada faqat yakka shaxs tomonidan tashkil etiladigan va uning irodasiga mos fikr doirasida boshqariladigan dars jarayonidir.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasida dars ishtirokchilari yani sub‘ektlar o‘rtasidagi o‘zaro kuchli aloqa asosida tashkil etiladigan, muammoning yechimlari va uning sabablarini aniqlash ishtirokchilarning hamkorligi asosida hal etiladigan pedagogik jarayondir. Mazkur texnologiya muayyan bir shaxsning ustunligi emas balki ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining tengligi va o‘zaro hamfikirliligi, sog‘lom raqobat muhitining yaratilganligi hamda do‘stona aloqalar o‘rnatilganligi, shuningdek, ularning irodasi va maqsadlariga mos holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda, o'quvchilarga o'z fikrini erkin bayon qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur qilish muhitini yaratib beradi. An'anaviy ta'lim bir qadar cheklangan va darslar muayyan bir shaxsning ustunligi asosidagi avtoritar pedagogik jarayondir.

O'qitish va ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita didaktik materiallar va interfaol usullardan qay darajada to'g'ri, oqilona foydalanishga bog'liq. Shunday ekan, biz o'rganayotgan "Tarbiya" fanini o'qitishda muayyan samaradorlik va yutuqlarga erishish didaktik materiallar yoki interfaol usullarning uzviyligini ta'minlovchi elementlarning aloqadorligiga erishish bilan bog'liqdir.

"Tarbiya" fanini o'qitishda didaktik materiallar va interfaol usullarning uzviy aloqadorligini ta'minlash ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltiruvchi asos bo'lib hizmat qiladi. Shu o'rinda, "Didaktika nima?" va "Didaktik materiallar deganda nimani tushunasiz?",-kabi savollarga javob berishni lozim topdik.

Pedagogika ensiklopediyada, "Didaktika nima?",-degan savolga: "Didaktika (yunoncha didaktikos – o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi) – 1) pedagogikaning o'qitish nazariyasi bilan shug'ullanadigan tarmog'i; 2) ta'lim nazariyasi",-degan javobni olishimiz mumkin.<sup>1</sup>

"Didaktika" atamasi Yevropada pedagogik olimlar tomonidan chop etilgan pedagogikaga oid adabiyotlarda XVII asrda qo'llanila boshlagan. Dastlab, bu atama Ya.A.Komenskiy va A.Disterveg asarlarida qo'llanilgan. Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha "didaktikos" - "o'rgatuvchi", "didasko" esa - "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchining faoliyati mazmuni, ta'limning maqsadi, shakli, usuli, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etilgan. Bu so'z fanga 1613-yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Ratke tomonidan kiritildi.

Didaktikaga oid fikrlarning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, Sharq mutafakkirlari asarlarida "Didaktika" atamasi qo'llanilmagan bo'lsada, ammo, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning "Didaktika"ga oid qarashlarini ilgari surgan bo'lsalar, keyinchalik Abdulla Avloniy,

---

<sup>1</sup>Педагогика энциклопедия. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрети, 2015. I-жилд. 265–бет.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy singari ma‘rifatparvarlar tomonidan yozilgan qo‘llanma, maqola va darsliklarida “Didaktika” tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berishga qaratilgan mulohazalarning turli-tuman ekanligidan u keng ma‘noli tushunchalardan ekanligini tushunib yetish mumkin. Chunki, didaktika pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi va bilish nazariyasi bilan aloqadorlikda rivojlanadigan hamda o‘zining bor imkoniyatlari bilan ta‘lim-tarbiyaga oid masalalarni yuksaltirishga yo‘naltirishga qaratilgan, ta‘lim, ta‘lim jarayoni, ta‘lim tamoyillari, ta‘lim metodlari, ta‘lim shakllari, ta‘lim vositalari, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘qitish kabi didaktikaning asosiy tushunchalarini qamrab oluvchi pedagogik jarayon sifatida o‘quvchi va o‘qituvchining shakllantirish jarayonidir.

Didaktik jarayonlarning samaradorligi didaktik materiallar bilan bog‘liq. Shunday ekan, “Didaktik materiallar” tushunchasini mohiyatini ochib berish uchun yana Pedagogika ensiklopediyaga murojaat qilamiz: “Didaktik material – o‘quvchilarga bilim va ta‘lim-tarbiya berishga mo‘ljallab tanlangan maxsus o‘quv materiallari”,-deb takidlanadi.<sup>1</sup>

Didaktik jarayonning natijadorligini ta‘minlash didaktik materiallar va uning tarkibiy elementlari bilan bog‘liq. Tarqatma materiallar, fanni o‘qitishdagi zarur jihozlar, kompiyuter vositalari, modellar, maketlar, ko‘rgazmalar, texnik vositalar, asbob-uskunalar kabi didaktik vositalar majmui didaktik materiallarning tarkibiy elementlarini tashkil etadi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda didaktik materiallar yoki vositalar hamda interfaol usullardan foydalanish o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. O‘qituvchi-pedagoglar fanlarni o‘qitishda didaktik materiallar va interfaol usullardan foydalanish jarayonida quyidagi:

*birinchidan*, “Tarbiya” fanini didaktik ta‘minotining o‘ziga xosligi va turlichadir.

*ikkinchidan*, “Tarbiya” fanini didaktik ta‘minotini ishlab chiqish va taqdimot materiallarini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar to‘laligicha o‘qituvchi-pedagoglar tomonidan anglab yetilishiga erishishdir.

---

<sup>1</sup>Педагогика энциклопедия. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрети, 2015. I-жилд. 271–бет.

*uchinchidan*, “Tarbiya” fanidan o‘quv-tarbiya jarayoniga oid ochiq dars ishlanmalarini tayyorlash va ochiq darslarni tashkil etish malakalariga ega bo‘lish.

*to‘rtinchidan*, “Tarbiya” fanini o‘qitishda didaktik materiallar va interfaol usullardan foydalanishda o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat asosidagi yondashuviga erishish va sinf yoki auditoriyaning yosh xususiyatlari kabi o‘ziga xos jihatlarni hisobga olish talab etiladi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti ijtimoiy sohalaridagi yangilanish va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi bevosita o‘quv-tarbiya jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi, fan, texnikaning yuksalishi, innovatsion texnologiyalarning yangidan-yangi turlarining yaratilayotganligi, foydalanish hamda ta’lim tizimiga joriy etish bilan tizimning natijadorligini ta’minlashga bo‘lgan e’tibor, ishtiyoq ortib bormoqda. O‘quv-tarbiya jarayoniga noan’anaviy usullar, pedagogik texnika va didaktik vositalardan foydalanish asosida ta’lim tizimi ishtirokchilarida tadqiq etilayotgan ob’yektga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ob’yektning har bir elementi ustida mustaqil izlanish olib borish, o‘quvchilar o‘zlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish, o‘rganish, tahlil etish, baholash kabi imkoniyatlarni beradi.

Agarda, “Tarbiya” fanini o‘qitishda didaktik materiallar, didaktik vositalar va interfaol usullardan uzviylikda foydalanishga erishilsa, eng avvalo, vaqtni tejash, kam vaqt sarflab ko‘proq axborot yetkazish va ma’lumot berish, o‘quvchilarni mustaqil o‘zaro hamkorlikda ishlash muhiti yaratiladi. Bunday darslarda o‘qituvchi emas balki yuqorida aytganimizdek o‘quvchi shaxsi va uning irodasi o‘quv-tarbiya jarayonining markaziga qo‘yilishi lozim.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda didaktik materiallar, vositalar yoki interfaol usullardan foydalanish muayyan o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadigan usullarni talab etadi. Bunday xususiyatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular:

- o‘quvchilarning topshiriqlar ustida mustaqil ishlashga undash;
- o‘quvchilarning o‘qitish va dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;
- o‘quvchilarning o‘rganilayotgan masala va mavzuga nisbatan ijodiy yondashuv hissini kuchaytirish;
- o‘qituvchi-pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini muntazam tashkil etish kabilardan iboratdir.

## **“Tarbiya” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlar.**

“Tarbiya” fanini o‘qitishda aniq samara va natijaga erishishda interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Interfaol usullar yordamida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash, chiqarilgan mulohazalarni taqqoslash, ular orasidagi o‘zaro o‘xshashlik va farqlarni ko‘ra bilish, lug‘aviy ma‘nolarini sharhlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, hamkorlikda ishlash, bir-birini hurmat qilish kabi tamoyillar asosida tarbiyalash imkonini beradi. O‘z navbatida bu o‘quvchilarning intellektual salohiyati va hozirjavoblik qobiliyatini, erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga hizmat qiladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanishda pedagoglar tomonidan asosiy e‘tibor o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish lozim. Bunda o‘qituvchi-pedagoglar har bir mavzuga ijodiy yondoshish asosida quyidagi:

- interfaol usullar va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning elementlaridan o‘rinli foydalanib, darsni noan‘anaviy tarzida tashkil etish;

- o‘quvchilarni har bir mavzuga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, ijodiy yondoshuv qobiliyati, ko‘nikma va malakasini shakllantira olish;

- pedagoglar tomonidan fanlararo uzviylikka e‘tibor berish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘proq kiritish, o‘quvchilarni ijodiy tafakkur qilishga yo‘naltirish hamda bu borada katta tajribaga ega mahoratli o‘qituvchilarning ijodiy ishlari, pedagogik tajribalaridan keng foydalanish kabi jihatlariga e‘tibor berish talab etiladi.

Hozirda mamlakatimiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish keng tus olmoqda. O‘qituvchi-pedagoglar tomonidan o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiya va interfaol usullardan foydalanishga qiziqishning ortib borishining o‘ziga xos jihati samaradorlikning yuqoriligidir. Ana shunday usullardan biri “O‘z o‘rningni top” interfaol usulidir. Mazkur interfaol usul o‘quvchilarning o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilish va mulohazalarini qayta tiklashga imkoniyat yaratadi, shuningdek, ularning muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

“O‘z o‘rningni top” usuli, sinf yoki o‘quv xonasining qarama–qarshi tomonlariga ikkita vatman qog‘ozni osib qo‘yish bilan boshlanadi.

Qog'ozlardan biriga "Roziman", boshqasiga "Rozi emasman", degan ikkita biri–biriga zid fikrlar yozib qo'yiladi va "O'z o'rnini top" interfaol usuli bilan ishash qoidasi tushuntiriladi. O'quvchilar o'z fikrlariga mos so'z yozilgan tomonga o'tib, vatman qog'ozlar yonidan joy oladilar. Ikki tomonga ajralgan o'quvchilar o'z fikrlarini isbotlashga kirishadilar. Bu paytda, ular o'z fikrlarini o'zgartirib, qarama – qarshi tomonga o'tishlari ham mumkin. Faqat ular nega bunday qilganligini asoslab berishlari kerak. Ishtirokchilarning fikr–mulohazalari to'liq eshitilgach, o'qituvchi ularni tahlil qilib, xulosa qilib, o'quvchilarni baholaydi. Buday interfaol usul yordamida o'quvchilarda har qanday mavzuni turli xil usul va yondashuvlar asosida o'rganishning imkoniyatlari mavjudligi borasaidagi ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, "Tarbiya" fanini o'qitishda samarali bo'lgan "Insert" interfaol usulidan foydalanish tartiblari bilan tanishtirib o'tamiz. "Insert" interfaol usulini qo'llashdan avval, o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. Undan so'ng o'quvchilarga o'rganilayotgan materiallarning har bir elementlarini chuqur o'rganib chiqishlari va maxsus jadvalga muayyan belgilar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Chunki, mazkur interfaol usulda qo'llanilayotgan bunday belgilar muayyan funksiyalarni bajaradi. Masalan, "Tarbiya" fanidan o'qitilayotgan mavzu yuzasidan berilgan har bir ma'lumot, shu kungacha o'zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, "**Bilaman**" – *V*, agar ma'lumotlar tushunarli va yangi bo'lsa, u holda "**Ma'qullayman**" +, agar ma'lumotlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda "**O'rganishim lozim**",– o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda "**Tushunmadim**" –? belgisini qo'yadi. Quyida insert jadvali keltirilgan.

"INSERT"

<b>"Bilaman"</b> (V)	<b>"Ma'qullayman"</b> (+)	<b>"O'rganish lozim"</b> (-)	<b>"Tushunmadim"</b> (?)

"Insert" usulidan foydalanishning afzalligi shundaki, avval, kichik guruh a'zolari o'rtasida, so'ng kichik guruhlar bilan o'zaro o'quv bahsi

o'tkazilishi, bahsda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'ldirish, bilimdagi bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan o'qituvchi tomonidan berilgan axborot ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ommalashib borayotgan innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishda o'qituvchi-pedagoglardan talabchanlik, o'qitish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish, kasbiy bilimdonlik, interfaol usullardan foydalanish va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni tashkil etish malakasiga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur talablarga javob bera oladigan o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlashda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining ahamiyati kattadir. O'z navbatida ushbu muassasa xodimlarini ta'lim tizimi rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari asosida mahoratlarini muntazam oshirib borishni taqozo etadi. Chunki, fanni o'qitishdan kutilgan yuqori sifatdagi o'zlashtirish, natijaga erishish bevosita mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

"Tarbiya" fanini hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o'rganishni yanada takomillashtirish, tushuntirish, targ'ib etish, o'quvchilarda yangicha e'tiqod, dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Tarbiya" fanini o'qitishda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning qalbida axloqiy bo'shliqni vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, o'quvchilarni milliy axloqiy me'ros, milliy etiket tamoyillari asosida tarbiyalashga e'tiborni qaratishi lozim.


"Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullarni to'g'ri va samarali qo'llash o'qituvchining asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

"Tarbiya" fani o'qituvchilari interfaol usullardan foydalanish jarayonida uchraydigan muammolarni ijobiy hal etilsh, ularning mazkur usullar borasida ma'lumotlarga egaligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qanchlik to'g'ri qo'llay olish layoqati bilan uzviy bog'liq jarayon ekanligini unutmashimiz lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, interfaol usullar fanini o'qitishda har tomonlama mukammal




loyihalashtirish, aniq va to'g'ri maqsadlar qo'yish hamda kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beruvchi uzviy bog'liq komponentlar yig'indisidan iborat.

Shunday ekan, "Tarbiya" fanini o'qitishda ahamiyatli bo'lgan interfaol usullardan yana biri "Davra suhbat" usulidan foydalanish va uni qo'llash tartiblari bilan tanishtirib o'tamiz. "Davra suhbat" usuli – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o'quvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan usulidir. Darhaqiqat, bu usuli qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Chunki, bu usulda har bir o'quvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatishlari lozim.



"Davra suhbat" interfaol usulidan og'zaki shaklda ham foydalanish mumkin. "Davra suhbat" interfaol usulining og'zaki shaklida o'quvchilar aylana shaklda joylashadilar, o'qituvchi mavzuni boshlab beradi, so'ngra o'quvchilardan berilgan topshiriqlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish so'raladi va aylana bo'ylab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglab bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini rivojlanishiga xizmat qiladi. Quyida, "Davra suhbat" uchun shart bo'lgan stol-stullarni joylashtirish tartibi ko'rsatilgan.



“Davra suhbatı” interfaol usuli orqali o‘quvchilar “Tarbiya” fanidan o‘qıtılayotgan mavzu yuzasidan o‘zlarining fikr-mulohazalarini qisqa va aniq tarzda ifoda etish, o‘qıtuvchi-pedagoglar esa o‘quvchilarni baholashda qulay imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yani o‘quvchilar o‘zlari bergan savollarga guruhdagi boshqa o‘quvchilar berilgan javoblarni, o‘qıtuvchi esa o‘quvchilarni baholashi mumkin. “Davra suhbatı” interfaol usulini qo‘llashda o‘quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzuni tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fanni o‘qıtishda qulay bo‘lgan interfaol usullardan yana biri “Eslab qol” mashqi ham o‘zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur interfaol usuldan foydalanishda o‘qıtuvchi tarbiyaviy-axloqiy fikrlarning takomillashuviga katta hissa qo‘shgan olimu-fuzalolar, allomalarning nomlarini birma-bir aytadi. O‘quvchilar daftarga o‘zlari eslab qolgan allomalarning nomlarini yozadilar. So‘ng o‘qıtuvchiga o‘qib beradilar, o‘qıtuvchi esa ularni to‘ldiradi. Mashq shu tariqa davom ettiriladi. Bu bir tomondan o‘quvchining xotirasini mustahkamlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan uni zehnli bo‘lishlariga, uchinchi tomondan yoddan aytib berish qobiliyatini kuchaytirish bilan birga milliy va umuminsoniy tarbiyaviy-axloqiy tamoyillar bilan tanish imkoniyatini beradi.

“Tarbiya” fanini o‘qıtishda “T-jadval”idan foydalanish ham o‘zining samaradorligi bilan ahamiyatli bo‘lgan usullardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda o‘qıtuvchi “T-jadval”ini to‘ldirish tartibi bilan o‘quvchilarni tanishtirib o‘tishi lozim. O‘quvchilar mazkur usulni bajarishda yakka tartibda yoki juftlikda jadvalni to‘ldirib, mos

javoblarga “ha” yoki mos bo‘lmagan javoblarga “yo‘q” so‘zlarini yozishlari so‘raladi.

5-sinf “Tarbiya” fani dasturidagi “Bir-birimizni tushunishni o‘rganamiz” mavzusini o‘qitishda “T-jadval”idan foydalanish tartibi bilan tanishtirib o‘tamiz.

**“T-JADVAL”**

<b>Ijobiy tuyg‘ular</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>Salbiy tuyg‘ular</b>
Ha	Xursandchilik	Yo‘q
Yo‘q	Qo‘rquv	Ha
Ha	Shodlik	Yo‘q
Yo‘q	Jahl	Ha
Ha	Mamnuniyat	Yo‘q
Yo‘q	Dushmanlik	Ha
Yo‘q	G‘azablanish	Ha
Ha	Ilhomlanish	Yo‘q
Yo‘q	Xafagarchilik	Ha
Yo‘q	Qayg‘u	Ha
Yo‘q	Nafratnalish	Ha

6-sinf “Tarbiya” fani dasturi kiritilgan mavzularni takrorlashda topishmoq shaklidagi “Chaynvord” interfaol usulidan foydalanish o‘zining qiziqarliligi va ahamiyatligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

“Chaynvord” interfaol usuli, “Tushunchalar tahlili”ga o‘xshash bo‘lib ko‘rinsada, ammo, u o‘ziga xos farqli jihatlari bilan undan ajralib turadi. “Chaynvord” usulida o‘quvchilar tushunchalar tahlilini emas, aksincha tahlili keltirilgan tushunchalarning o‘zini topishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tarqatilgan jadvalda avval tushunchaning tahlili, so‘ng qavs ichida topilishi kerak bo‘lgan ibora yoki jumla necha harfdan iboratligi ko‘rsatib qo‘yiladi.

### “CHAYNVORD” interfaol usuli

1	Bu soʻzning lugʻaviy manosi maʼnaviyat tushunchasini beradi. (4+4)	mani, mano
2	Mahalla arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “...”, “...” maʼnolarini bildiradi.(4+3)	“oʻrin”, “joy”
3	Adabiyotimizda shox va shoir deya eʼtirof etilgan shaxs (10+8+5)	Zahiriddin Muhammad Bobur
4	“Shoirlarning sultoni”, degan ulugʻ nomga sazavvor boʻlgan tarixiy shaxs (6+6)	Alisher Navoiy
5	“Muallim-as-soniy” (3+4+7)	Abu Nasr Forobiy
6	“Muhaddislar sultoni”, degan yuksak nomga sazavvor boʻlgan tarixiy shaxs (4+2+7)	Imom al Buxoriy

6-sinf “Tarbiya” dasturiga kiritilgan “Men “Oltin qoida” boʻyicha yashayman” mavzusini oʻqitishda “Sinkveyn» (Besh qatorli shʼer) usulidan foydalanish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. “Tarbiya” fanini oʻqitishda “Sinkveyn” usulini tavsiya etayotgan ekanmiz boshqa interfaol usullar singari bu usuldan foydalanish ham muayyan oʻziga xos qonuniyatlar, talab va tartiblarga ega ekanligini ham taʼkidlab oʻtish lozim. Mazkur interfaol usul oʻqitilayotgan mavzu boʻyicha muammoli vaziyatlarni yechish yoki alohida oʻquv elementlarini mukammallashtirishda oʻquvchi tafakkurini charxlashga hizmat qiladi.

*“Sinkveyn” usuli quyidagicha tuziladi:*

- 1) Birinchi qatorda bitta soʻzdan iborat – ot soʻz turkumi orqali ifodalanadi;
- 2) Ikkinchi qatorda ikki soʻzdan iborat – sifat soʻz turkumi orqali ifodalanadi;
- 3) Uchinchi qatorda uch soʻzdan iborat – feʼl soʻz turkumi orqali ifodalanadi;
- 4) Toʻrtinchi qatorda toʻrt soʻzdan iborat munosabat bilan ifodalanadi;
- 5) Beshinchi qatorda bir soʻzdan iborat – sinonim soʻz turkumi orqali ifodalanadi.

### SINKVEYN(5 qatorlik she'r)

1	Tushuncha - ot	Axloq
2	Ikki so'zdan iborat sifat	Yuksak xulq
3	Uch so'zdan iborat fe'l	Ezgu fazilatlarga yetaklaydi
4	To'rt so'zdan iborat munosabat	Inson hayotiga mazmun bag'ishlaydi
5	Bir so'zdan iborat sinonim	Odob

Bugun biz axborot va innovatsion texnologiyalar asrida yashamoqdamiz. Axborot texnologiyalarining takomillashuvi nafaqat jamiyatda ijtimoiy hayoining yuksalishiga balki, innovatsion texnologiyalar, pedagogik amaliyot jarayoni hamda ta'lim tizimiga ham joriy etib borilmoqda. Jumladan, bugungi kunda uslubchi-amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan interfaol usullarning juftlikda ishlash, uchlikda ishlash, to'rtlikda ishlash, kichik guruhlarda ishlash kabi turli shakllarini taklif etmoqdalar.

Interfaol usullardan o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bunday interfaol usullardan foydalanishda aniq bir maqsadni ko'zda tutib, o'quvchilarning shu jarayonda ishlashga tayyorlash jarayonida o'qituvchi-pedagoglar tomonidan foydalanilayotgan interfaol usullardan ma'lum malakalarga ega bo'lgan hollarda qo'llanish kutilgan natijalarni olishimiz mumkin.

7-sinf "Tarbiya" dasligiga kiritilgan "Ko'zga ko'rinmas xatarlar" mavzusini o'qitishda tavsiya etiladigan "Tushunchalar tahlili" interfaol usuli o'zining samaradorligi va oddiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu usuli yordamida o'rganilayotgan yoki avval o'qitilgan mavzudagi tushunchalarni tahlil etish hamda tezkorlik bilan tushunchalarni mohiyatini tushunib olishda o'qituvchiga qulay imkoniyatlarni yaratib beradi. "Tushunchalar tahlili" usuli yordamida o'quvchilarni guruh-guruh bo'lib yoki individual tarzda ham mustaqil ishlatish mumkin.

Biz quyida "Tushunchalar tahlili" interfaol usuli ustida amaliy mashg'ulotni bajaramiz.

### “TUSHUNCHALAR” tahlili

№	TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
1	Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar	
2	Zo‘ravonlik	
3	Buzg‘unchilik	
4	Ijtimoiy tarmoqlar	
5	Tahdid	
6	Millatchilik	
7	Ekstremizim	
8	Terrorizim	
9	Missionerlik	

“Tarbiya” fanini o‘qitishni samarali tashkil etishda qulay bo‘lgan interfaol usullardan yana biri “Begonasini top” usuli bilan tanishtiramiz.

Bunda o‘quvchilarga “teskari test” savollari beriladi, ya’ni to‘rtta javob variantlaridan bitta noto‘g‘ri javobni topish kerak.

Masalan, 7-sinf Tarbiya fani dasturiga kiritilgan “Oliy maqsadlar bilan yashash” mavzusida “Maqsadga nima olib boradi?,-degan hikoya kiritilgan. Mazkur hikoya asosida “Begonasini top” interfaol usulini tushuntirishda foydalanishimiz mumkin.

Masalan (namuna) “Begonasini top”

Ushbu savoldagi begona javob qora harflar bilan belgilangan.

**“Maqsadga nima olib boradi?” hikoyasida ishlatilmagan so‘zlarni aniqlang?**

- a) Ustoz, kamon, o‘q
- b) Shogird, aql-zakovat
- c) Yovvoyi atir gul, sadog‘i
- d) Qibla, bulut, yomg‘ir.

**“Maqsadga nima olib boradi?” hikoyasida ishlatilmagan soʻzlarni aniqlang?**

- a) Ustoz, kamon, oʻq
- b) Shogird, aql-zakovat
- c) Yovvoyi atir gul, sadogʻi
- d) Qibla, bulut, yomgʻir.**

Ushbu mavzuda berilgan “Orzular izdoshi” hikoyasini oʻquvchilar ongiga mustahkam singdirishda va ularni hikoya ustida chuqurroq mushohada yuritishga undashda “Begonasini top” interfaol usulidan foydalanish oʻzining samaradorligi bilan alohida ajralib turadi.

Masalan (namuna) “Begonasini top”

**“Orzular izdoshi” hikoyasida ishlatilgan atamalarga teskari soʻzlarni aniqlang?**

- a) Monti, oʻgʻlim, Atlanta
- b) Doʻstim, Jek, Ferma
- c) Suniy qadriyatlar, ilmiy qadriyatlar
- d) Chavondoziardak, Otda, Murabbiy.**

Ushbu savoldagi begona javob qora harflar bilan belgilangan.

**“Orzular izdoshi” hikoyasida ishlatilgan atamalarga teskari soʻzlarni aniqlang?**

- a) Monti, oʻgʻlim, Atlanta
- b) Doʻstim, Jek, Ferma
- c) Suniy qadriyatlar, ilmiy qadriyatlar**
- d) Chavondoziardak, Otda, Murabbiy.

**Eslatma.** “Begonasini top” interfaol usulidan “Tarbiya” fanini oʻqitish jarayonida biz yuqorida koʻrsatib oʻtgan shaklda tuzilgan savollar jamlanmasi har bir guruh aʼzolariga teng miqdorda tuzilishi kerak. Bunda guruhlarga tavsiya qilinayotgan savollar miqdori qancha boʻlishi oʻqituvchining eʼtiboriga havola qilinadi.

“Tarbiya” fanini oʻqitishda “Toʻrtinchisi ortiqcha” usuli boshqa interfaol usullar kabi ijobiy ahamiyat kasb etadi. “Toʻrtinchisi ortiqcha”

interfaol usuli quydagicha tuzilgan jadval asosida amalga oshiriladi. O'quvchilar bu jadvalda mavzu bo'yicha tuzilgan savollarga tezlikda javob berishlari lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil ravishda o'qitilayotgan mavzu yuzasidan berilgan savollardagi noto'g'ri javoblarni aniqlab olish imkonini beradi.

"To'rtinchisi ortiqcha" interfaol usulida "Tarbiya" darslaridagi ko'plab mavzularni o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. Mazkur interfaol usulda bir-biriga mos keladigan uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri savol jadval asosida o'quvchilarning e'tiboriga havola etiladi.

**"To'rtinchisi ortiqcha" usuli**

<b>T/r</b>	<b>Milliy qadriyatlar</b>	<b>Umuminsoniy qadriyatlar</b>	<b>Qadriyatlarning turlari</b>
1	Milliy urf-odatlar.	Ozodlik, tinchlik, do'stlik va tenglik.	Tabiiy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar.
2	Navro'z.	Milliy urf-odatlar.	Ma'naviy qadriyatlar, estetik qadriyatlar.
3	To'ylar va bayramlar.	Hurfikrlilik, bag'rikenglik, mustaqillik va adolat.	Suniy qadriyatlar, ilmiy qadriyatlar.
4	Taom tanovvul qilish.	Birdamlik, ma'rifatparvarlik va ta'lim.	Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.

Ushbu savoldagi begona javobi qora harflar bilan belgilangan.

<b>T/r</b>	<b>Milliy qadriyatlar</b>	<b>Umuminsoniy qadriyatlar</b>	<b>Qadriyatlarning turlari</b>
1	Milliy urf-odatlar.	Ozodlik, tinchlik, do'stlik va tenglik.	Tabiiy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar.
2	Navro'z.	<b>Milliy urf-odatlar.</b>	Ma'naviy qadriyatlar, estetik qadriyatlar.
3	To'ylar va bayramlar.	Hurfikrlilik, bag'rikenglik, mustaqillik va adolat.	<b>Suniy qadriyatlar, ilmiy qadriyatlar.</b>
4	<b>Taom tanovvul qilish.</b>	Birdamlik, ma'rifatparvarlik va ta'lim.	Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.



O'quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda, ularning ongi va qalbida vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'ularini kuchaytirish, turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda "Tarbiya" fanining o'rni qanchalik yuqori bo'lsa, fanni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ham shunchalik ahamiyatlidir.

8-sinf "Tarbiya" fani dasturidan o'rin olgan yana bir mavzu "Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqaris" mavzusini o'qitishda "Blits so'rov" interfaol usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. "Blits so'rov" interfaol usuli yordamida o'qitilayotgan mavzuni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirishda qo'l keladi. "Blits so'rov" interfaol usulidan guruhlarda ishlashda ham foydalanish mumkin. Modomiki, o'qituvchilar mazkur usuldan dars jarayonlarida foydalanar ekanlar uning foydali tomonlari va ahamiyatli jihatlarini bilib olmoqlari zarur. Mazkur interfaol usul o'quvchilarning guruhlarda ishlash qobiliyatini o'stirish, mavzu yuzasidan berilayotgan savollarga tez va to'g'ri javob berish, o'z fikrini himoya qilish singari xususiyatlarini shakllantirishda ham ahamiyatlidir.

"Blits so'rov" interfaol usulidan guruhlarda ishlashda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'lib olinadi: kichik guruhlar sonidan kelib chiqqan holda quttiga savollar yozilgan kartochkalar solib qo'yiladi. Har bir o'quvchi bittadan kartochka oladi va o'quvchilar o'z guruhlari bo'yicha maxsus belgilangan stol atrofida jamlanadilar. O'quvchilarning har biriga harakatlar mazmuni o'rni almashtirilgan holda oldindan yozib qo'yilgan jadval tarqatib chiqiladi.

### “Blits”so‘rov texnologiyasi

№	Savollar	Javoblar
1	“O‘zbekim” qasidasining muallifi kim?	Erkin Vohidov.
2	Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi qachon chop etilgan?	1968-yilda yozilgan.
3	Erkin Vohidov Gyotening qaysi asarini tarjima qilgan?	“Faust” asarini.
4	“Nuqul o‘tmishidan noliydigan odam kelajagini barbod qilishi mumkin. O‘z ildizini inkor qilgan daraxt qurib qoladi”,- degan boraning muallifini aniqlang?	O‘tkir Hoshimov.
5	G‘azab oqibatida qanday kasalliklar paydo bo‘ladi?	Qon bosimi, yurak-qon tomir va ovqat hazm qilish bilan bog‘liq kasalliklar paydo bo‘ladi.
6	Hissiyot–bu ...	quvvat,ich-ichingizda yuzaga kelgan kuch.
7	His-tuyg‘ular insonlarda quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin?	Ijobiy va salbiy shakllarda nomoyon bo‘lishi mumkin

### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi”<sup>1</sup> aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Bu metod 1921-yilda Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanilganligi pedagogik adabiyotlarda keltirilgan.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) Kim (Who);

<sup>1</sup>Keys – аниқ вазият, ҳодиса, «study» – ўрганмоқ, таҳлил қилмоқ.

- 2) Qachon (When);
- 3) Qayerda (Where);
- 4) Nima uchun (Why);
- 5) Qanday/Qanaqa (How);
- 6) Nima-natija (What).

“Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash.</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining seminar aspektlarini yoritish.</li> </ul>

Keys. Tasavvur qiling!“O'qituvchi-o'quvchi” ko'rinishida pedagogik nizo vujudga keldi. Qaror qabul qilish uchun tizimli tahlilni amalga oshirish talab etilmoqda. Tahlil usullarini belgilb, yuzaga kelgan vaziyatni ta'lim-tarbiya manfaatidan kelib chiqqa holda yondashish talab etilmoqda.

### Keysni bajarish bosqichlari

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilangan (individual vakichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ishlash).

“Tarbiya” fanini o‘qitishda yaxshi samara beradigan innovatsion usullardan yana biri “Nima uchun?” interfaol usulidir. Bu usul-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantirishni faollashtiradi. Mazkur usuldan foydalanishda dastlab o‘qituvchi, o‘quvchilarni “Nima uchun?” interfaol usulining tuzish qoidalari bilan tanishtiradi, so‘ngra o‘quvchilar alohida kichik guruhlariga bo‘linib ular uchun ajratilgan muammo ustida mustaqil ishlashga yo‘naltirish maqsadida “Nima uchun” so‘rog‘ini beradilar.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar o‘zlariga berilgan savolga javoblarni “Nima uchun” interfaol usulining sxemasiga yozadilar. Ana shunday tartibda har bir guruh muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiradilar va muammoning yechimlari umumiy chizmaga keltirib sxemaga joylashtiradilar.


“Nima uchun?” interfaol usulining chizmasini tuzishda quyidagi:

1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.

2. Chizmaning ko‘rinishi - mulohazalar zanjirini to‘g‘ri chiziqli yoki to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.

3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilash kabi qoidalarga amal qilish ta‘lab etiladi.

8-sinf “Tarbiya” fani darsligidagi “Tejamkorlik – yaxshi fazilat” mavzusidan foydalanib “Nima uchun?” interfaol usuli bilan ishlashni o‘rganamiz.



O'quvchilarni "Tarbiya" fani predmetining mavzusidan kelib chiqib turli muammoli vaziyatlarning yechimini topishga o'rgatishda "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarda muammoning mohiyatini aniqlash, uning yechimini topishda mos uslublarni tanlash, muammoni kelib chiqish sabablarining yechimini topish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

"Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish asosida mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlariga joylashtirgandan so'ng, "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish tartib va qoidalarini tushuntiradi, ya'ni "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish bosqichlarini, har bir bosqich o'quvchilardan diqqat-e'tiborni jamlashni talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlari mumkinligini ta'kidlab o'tadi. "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish tartib-qoidalarini tushuntirilgach mashg'ulot boshlanadi.

"Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanishda, avvalo, mavzuga oid bironta kinolavha yoki muammoli vaziyat taqdim etiladi. O'quvchilar mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavha yoki muammoli vaziyatni diqqat bilan tomosha qiladilar, unda yoritilgan muammoli vaziyatlarni aniqlashga, xotirada saqlab qoladilishga harakat qiladilar va daftarlariga belgilab qo'yadilar.

Agar yuqorida ta'kidlangan imkoniyatlar bo'lmasa, u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin.

-har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 qog'oziga flomaster bilan yozib chiqadi;

-berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi;

-o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan xolda guruhlariga tarqatiladi;

-tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

-o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

<b>Muammoning turi</b>	<b>Muammoni kelib chiqish sabablari</b>	<b>Muammoni bartaraf etish yo'llari va sizning harakatlaringiz</b>
Toza ichimlik suvining kamligi.	Suvni toza saqlashga kam e'tiborqaratilganligi.	Suvni saqlashga oid tadbirlar o'tkazish.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda turli fikrlarni taqqoslash va ularda tanqidiy munosabat ko'nikmasini shakllantirish, masalani yechimini topishhamdashu yechim asosida hukm chiqarish qobiliyati rivojlantirish, munozara yuritish, yechimlarni to'g'ri topish malakalari shakllantirishda "SWOT- tahlil" interfaol usuli ahamiyatli hisoblanadi.

"SWOT - tahlil" usuli o'quvchilarning muammolarni teran tahlil qilish va ularni taqqoslashga yo'naltiribgina qolmay, ularda o'z fikrini qat'iy asoslash ko'nikmasining shakllanishiga ham yordam beradi. "SWOT - tahlil" topshirig'ida fikrlar quyidagi jadvalda bayon etiladi.

<b>S</b>	kuchli tomoni	-o'quvchilar "Ommaviy madaniyat" tushunchasining mohiyatini tushunib yetadilar; -“Ommaviy madaniyat”ning zararli tomonlarini anglab yetadilar.
<b>W</b>	kuchsiz tomoni	-“Ommaviy madaniyat”ni tarqatuvchi manba va vositalarning ko'pligi; -yoshlarga ta'sir etayotgan axborot omillarini to'sib bo'lmasligi.
<b>O</b>	imkoniyatlari	-“Ommaviy madaniyat”ning oldini olishga qaratilgan oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy resurslarning etarli ekanligi; -Internet tarmog'ida milliy saytlar va domenlarimizning ko'payib borayotganligi.
<b>T</b>	xavf-xatar	- “Ommaviy madaniyat”ni keltirib chiqarayotgan ichki va tashqi omillarning mavjudligi; - yoshlarning psixologik xususiyatlari turli virtual o'yinlarga qiziqishini keltirib chiqarishi mumkinligi.

Interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llash ta'lim tizimida keng tarqalib bormoqda. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini demokratlashtirish, hamkorlik va hamjihatlikda dars jarayonlarini tashkil etish imkoniyatini bermoqda.

“Tarbiya” fanini interfaol usullar yordamida tashkil etish, **birinchidan**, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, **ikkinchidan**, ularni “Tarbiya” fanidagi atamalar, tushunchalar, umuman olganda fanni o'zlashtirishlarini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Tarbiya” fanini interfaol usullar asosida o'qitishda biz yuqorida bayon qilgan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

## **MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Ta'limning interfaol usullari va ularni amalda qo'llash tartiblarini bilasizmi?

2. O'quvchi shaxsining faollik darajasini yo'naltirishda interfaol usullarning ahamiyati qanday?

3. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

4. "Innovatsion texnologiyalar" asosida "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida qanday tushunchaga egasiz?

5. "Tarbiya" fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati qanday?

6. "Tarbiya" fanining o'qitish samaradorligini oshirishda didaktik materiallar va interfaol usullar uzviyligini ta'minlashning qanday tamoyillari bor?

7. Interfaol usullarning qanday turlarini bilasiz?

8. Didaktika deganda nimani tushunasiz?

9. Didaktik materiallar nimalardan iborat?

10. Didaktik materiallarning qanday turlarini bilasiz?



## AMALIY TOPSHIRIQ TEST

### 1. Interfaol so‘zining ma’nosini belgilang?

- A) Inglizcha “inter”-birgalikda, o‘zaro; “act”-harakat qilish.
- B) Nemischa “inter”-birgalikda, o‘zaro; “act”-harakat qilish.
- C) Fransuzcha “inter”-birgalikda, o‘zaro; “act”-harakat qilish.
- D) Portugalcha “inter”-birgalikda, o‘zaro; “act”-harakat qilish.

### 2. Kuch, Zaiflik, Imkoniyat, Xavf-xatar bular qaysi metodga tegishli?

- A) SWOT.
- B) Keys stadi.
- C) FSMU.
- D) Bumerang.

### 3. Muammoli vaziyatning belgilari qaysilar?

- A) O‘quvchiga notanish faktning mavjudligi, vazifalarni bajarish uchun o‘quvchilarga beriladigan ko‘rsatmalar, yuzaga kelgan mashaqqatni hal qilishda shaxsiy manfaatdorlik.
- B) Asos, unga birikkan to‘qqizta –“gulbarglarni” o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.
- C) Didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalarni)larni o‘z ichiga oladi.
- D) Didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo‘lib, o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

### 4. “Kompitensiya” tusunchasi birinchi marta qayerda va qachon ishlatilganligini aniqlang?

- A) 1596-yil Yevropada, Vikpediya lug‘atida.
- B) 1596-yil Garbiy-sharqiy Osiyoda.
- C) 1596-yil Germaniyada.
- D) 1596-yil Osiyoda.

### 5) Dars kuzatish maqsadlari qaysilar?

- A) O‘rganish, tahlil, nazorat va o‘rgatish.
- B) O‘qituvchining bilim darajasini aniqlash.
- C) Darsning maqsadiga erishishni aniqlash.
- D) O‘qituvchining darsini tahlil qilish.

### 6. G‘oyalar banki deya nom olgan “Aqliy hujum” usulini kim birinchi qo‘llagan?

- A) 1939-yilda Osborn.
- B) 1980-yilda M.Klarin.
- C) 1894-yilda J.D'yui.
- D) 1970-yilda B.Blum.

### **7. Modul nima?**

- A) Modul lotincha "modulus"so'zidan olingan bolib me'yor, o'lchov ma'nosini anglatadi.
- B) Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash uchun sharoit va imkoniyatlarni ochib berishdan iborat.
- C) Didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega.
- D) Didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

### **8. Motiv tushunchasiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) motiv-ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.
- B) pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash uchun sharoit va imkoniyatlarni ochib berishdan iborat.
- C) didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega.
- D) motiv ehtiyojini qondirish uchun oshirish.

### **9. Qaysi davlat 1985-yili 10-sentabr kuni "O'qituvchilar kuni"ni umumxalq bayrami sifatida nishonlashni ehlon qildi?**

- A) Xitoy.
- B) Koreya.
- C) Germaniya.
- D) Amerika.

### **10. Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodi qanday nomlanadi?**

- A) Davra suhbat.
- B) Bahs-munozara.
- C) Muammoviy vaziyat.
- D) Kichik guruhlar bilan ishlash.

### **11. Kompetentsiya - ... ?**

- A) Ta'lim oluvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqati.

- B) Ta'lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini aniqlash.
- C) Atrof, muhit, qonuniyatlari, qonunlari va faoliyat usuli haqida tushunchalarini o'zlashtirish.
- D) To'g'ri javob y'o'q.

**12. Struktura - ... ?**

- A) Dars qisimlarining nisbati va o'zaro bog'lanishi.
- B) Didaktik vazifa va tuzilma.
- C) Yangi materiallarini o'rganish.
- D) Barcha javob to'g'ri.

**13. Tajribali pedagoglar tomonidan yozilgan faqat o'qituvchi va pedagoglarga qo'shimcha o'quv qurol bu - ... ?**

- A) Metodik qo'llanmalar.
- B) Didaktik materiallar.
- C) Darsliklar.
- D) Mavzuga oid referatlar.

**14. Usul - bu ... ?**

- A) B, D javoblar to'g'ri.
- B) Metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi.
- C) Izlanish, bilish, nazariya.
- D) Metodning tarkibiy qismi.

**15. Metod - ... ?**

- A) Izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'limot, biror narsaga yo'l manosini anglatadi.
- B) Izlanish, bilish yo'li, nazariya, biror narsaga yo'l manosini anglatadi.
- C) Izlanish, bilish yo'li.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

**16. O'qituvchi tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydi - bu qaysi metod?**

- A) Og'zaki bayon.
- B) Ma'ruza.
- C) Hikoya.
- D) Suhbat.

**17. Laboratoriya - ... ?**

- A) Ish tajribasida turli o'quv topshiriqlarni amalda bajarish.
- B) O'rganilgan bilimlarini turli o'quv sharoitlariga tadbiq etish.
- C) O'qituvchi va o'quvchini o'zaro ta'siri.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

**18. Ta'lim jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish bu...**

- A) ta'lim texnologiyasi.
- B) pedagogik texnologiyasi.
- C) bir butunlik, yaxlit tamoyili.
- D) faoliyatli yondashuv tamoyili.

**19. O'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli nima?**

- A) dars.
- B) o'yin.
- C) malaka.
- D) tahlil.

**20. Aqliy hujum metodlarining qanday shakllari mavjud?**

- A) Yozma, og'zaki.
- B) Mavzuni takrorlash.
- C) Yod olish.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

**21. "Brifing" metodidagi brifing so'zining ma'nosi...**

- A) inglizcha qisqa.
- B) yunoncha aqida.
- C) lotincha yangilash.
- D) frantsuzcha uzun.

**22. "Keys -stadi" metodi dastlab qaysi universitetda foydalanilgan?**

- A) 1921-yilda Garvardda.
- B) 1922-yilda Oksfordda.
- C) 1930-yilda Kembridjda.
- D) 1935-yilda Inxada.

**23. O'quv rejasini tuzishda o'qituvchiga necha foiz o'zgartirish huquqi berilgan?**

- A) 15%.
- B) 20%.
- C) 25%.
- D) 30%.

**24. Muammoli ta'limning ilk g'oyalari kim tomonidan asoslangan?**

- A) J.D'yui
- B) V.Okon
- C) L.Rubinshteyn

D) I.Mahmudov

**25. Muammoli ta'limni ilk bor qaysi tajriba maktabida tashkil etilgan?**

- A) 1894-yil Chikagoda.
- B) 1896-yil Manxettonda.
- C) 1894-yil Vashingtonda.
- D) 1896-yil N'yu-yorkda.

**26. Muammo so'zining lug'aiy ma'nosi nima?**

- A) yunoncha to'siq, qiyinchilik.
- B) grekcha to'siq.
- C) lotincha to'siq, qiyinchilik.
- D) inglizcha qiyinchilik.

**27. "Blits so'rov" metodi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) inglizcha – tezkor, bir zumda.
- B) lotincha – tezkor, bir zumda.
- C) yunoncha – tezkor, bir zumda.
- D) grekcha – tezkor, bir zumda.

**28. 1978-yil E.Aronson qanday interfaol usulni ixtiro qildi?**

- A) Arra metodi.
- B) BBB metodi.
- C) Aqliy hujum.
- D) Arra-2 metodi.

**29. R.Slavin "Arra" metodini qisman o'zgartirib - "Arra-2" metodini qachon yaratdi?**

- A)1986-yil. B)1980-yil. C)1985-yil. D)1978-yil.

**30. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo najot, yo halokat – yo saodat, yo falokat masalasidir". Ushbu g'oya muallifini aniqlang?**

- A) Abdulla Avloniy.
- B) Usmon Nosir.
- C) Behbudiy.
- D) Munavvarqori Abdurashidxonov.

## GOLLASARIY

TUSHUNCHA	MAZMUN
<b>Adaptatsiya</b>	(lot. Adabtatio - moslashuv) – organizmning turli yashash sharoitlarga moslashish.
<b>Kategoriya</b>	Ob'yektiv reallikdan hodisalarning asosiy xususiyatlari va qonuniyatlari aks ettiradilar va davrning ilmiy-nazariy tafakkurini harakterini belgilab beradigan umumiy tushunchalardir.
<b>Pantomimo</b>	Imo-ishora teatri.
<b>Kasbiy-ijodiy faoliyat</b>	Mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.
<b>Kreativlik</b>	Lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor –individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.
<b>Ijod</b>	Ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.
<b>Ijodiy topshiriqlar</b>	Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.
<b>Ijodiy qobiliyat</b>	Ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati
<b>O'zini o'zi ijodiy faollashtirish</b>	Shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., O'zbekiston, 2017-y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O'zbekiston, 2018-y.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. T., O'zbekiston, 2019-y.

4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, № 276 (7778).

### **II. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/19/563/3685-son.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr*dagi* "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini

bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-son qaror

10.Xalq ta'limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Etika kodeksi) (Xalq ta'limi vazirligining 2019 yil 31 oktyabrdagi 349-son buyrug'i.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.

2. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. 1-jild. Tuzuvchilar: K.Xoshimov, S.Ochilov. - T., "O'qituvchi", 1995-y.

3. Quronov M. Otalar kitobi. - T., "O'zbekiston", 2006-y.

4. Quronov M. Milliy tarbiya. - T., "Ma'naviyat", 2007-y.

5. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...T.: "Ma'naviyat", 2014-y.

6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010-y.

7. Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari. – T.: Akademiya, 2011-y.

8. Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar ma'suliyati. – T.: Akademiya, 2011-y.

9. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: "O'zbekiston", 2012-y.

10. Paxrutdinov Sh., Saidolimov S., Mamatqulov D. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari (xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini malakasini oshirish kurslari uchun o'quv qo'llanma). Toshkent 2017-y.

11. Mahmudov O. Farzandnoma. T., "O'qituvchi" 2018-y.

12. A.Qodirov va boshqalar. Yosh ota-ona kitobi. "Muharrir", T.: 2018-y.

13. A.Qodirov va boshqalar. Baxtli bola ma'naviyati. "Muharrir", T.:2018-y.

14. A.Qodirov va boshqalar. Fazilatli avlod. "Muharrir", T.: 2018-y.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Sh.Po'latov. Ta'lim menjmenti yohud ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. - T "Adabiyot uchqunlari", 2017-y.

2. Pedagogika ensiklopediya. I-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.



3. Pedagogik ensiklopediya. II-jild. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.

4. M.Aminov, T. Daminov va boshqalar. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 4 kitob, 2002-y.

5. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma). — T.: «Nihol nashryoti», 2013-y.

6. Sh.M.Masharipova. Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy-uslubiy jurnal. № 5, 2015-y.

7. “Tarbiya” 5-6-7-8-9-sinflar uchun darslik. 2020-y.

#### **IV.Elektron ta’lim resurslari**

1. <https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari Milliy bazasi.

2. <http://www.eduportal.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi axborot-ta’lim portali.

3. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.

4. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

5. <http://www.yeduportal.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.

6. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta’lim markazi sayti.

7. <http://www.dtm.uz> - Respublika test markazi sayti.

8. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

9. [www//ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Ziyonet ta’lim axborot tarmog‘i.

## MUNDARIJA

<b>SO‘Z BOSHI</b> .....	3-bet
<b>I BOB. INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR-TA‘LIM TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI</b>	
Ta‘lim tizimini texnologiyalashtirishning o‘ziga xos jihatlari .5-bet “Innovatsion texnologiyalar” asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlar.....	9-bet
<b>II BOB. “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH: NAZARIY VA AMALIY TOPSHIRIQLAR</b>	
“Tarbiya” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati .....	16-bet
“Tarbiya” fanini o‘qitishning samaradorligini oshirishda didaktik materiallar va interfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslari.....	19-bet
“Tarbiya” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlar .....	23-bet
Mustahkamlash uchun savollar.....	43-bet
AMALIY TOPSHIRIQ (TEST .....	44-bet
Gollasariy.....	51-bet
Foydalanilgan adabiyotlar .....	53-bet

Oripov Jamshid Yaxshiboyevich

***TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA INTERFAOL  
USULLARDAN FOYDALANISH***

QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI

**Muharrir:** Muhammad Sobir  
**Musahhah:** Osima Sobirjon qizi

**ISBN 978-9943-8319-0-2**

“Qamar media” nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani  
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 02.10.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 10.10.2022-yil.  
Bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>, “Cambria” garniturası.  
Bosma tabog‘i 3,25. Adadi \_\_\_ nusxa. Buyurtma № 2022/23  
Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

---

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi  
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi bosmaxonasida chop etildi

